


JOURNAL OF

# NATURAL SCIENCE

<https://natscience.jdpu.uz>

2025 /№1 (18)

---



Chemistry  
Biology  
Geography

<b><u>TAHRIR HAY’ATI</u></b>	<b><u>TAHRIRIYAT A’ZOLARI</u></b>
<b>Bosh muharrir</b> Yaxshiyeva Z.Z. k.f.d., professor	<b><u>Bosh muharrir</u></b> Yaxshiyeva Zuhra Ziyatovna k.f.d., professor <b><u>Tahririyat a’zolari:</u></b> 1. Yaxshiyeva Z.Z. – k.f.d., professor JDPU. 2. Shilova O.A. – k.f.d., professor I.V. Grebenshikov nomidagi Rossiya FA Silikatlar kimyosi instituti. 3. Markevich M.I. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 4. Elbert de Josselin de Jong – professor, Niderlandiya. 5. Anisovich A.G. – f.m.f.d., professor Belarussiya FA. 6. Kodirov T. – k.f.d., professor TKTI. 7. Abduraxmonov E. – k.f.d., professor SamDU. 8. Nasimov A. – k.f.d., professor SamDU. 9. Smanova Z.A. – k.f.d., professor O’zMU. 10. Mavlonov X. – b.f.d., professor JDPU. 11. Usmanova X.U. – professor URUXU. 12. Qutlimurodova N.X. – k.f.d., dotsent O’zMU. 13. Nuraliyeva G.A. – dotsent O’zMU. 14. Sultonov M.M. – k.f.d., dotsent JDPU. 15. Xudanov U.O. – t.f.n., dotsent JDPU 16. Murodov K.M. – dotsent SamDU. 17. Abduraxmonov G’.– dotsent O’zMU. 18. Yangiboyev A. – k.f.f.d., (PhD), dotsent O’zMU. 19. Xakimov K.M. – g.f.n., professor v/b. JDPU. 20. Azimova D.E. – b.f.f.d., (PhD) dotsent. JDPU. 21. G’o’dalov M.R. – g.f.f.d., (PhD), dotsent JDPU. 22. Ergashev Q.X. – dotsent TDPU. 23. Orziqulov B. – k.f.f.d., (PhD) O’zMU. 24. Kutlimurotova R.H.-SVMUTF 24. Xamrayeva N. – dotsent JDPU. 25. Rashidova K. – dotsent JDPU. 26. Inatova M.S. – dotsent JDPU.
<b>Muassasa</b> Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Jurnal 4 marta chiqariladi (har chorakda)	
Jurnalda chop etilgan ma’lumotlar aniqligi va to’g’riligi uchun mualliflar mas’ul.	
Jurnaldan ko’chirib bosilganda manbaa aniq ko’rsatilishi shart.	

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti

Tabiiy fanlar Journal of Natural Science-elektron jurnali

<https://natscience.jdpu.uz>

**QIZILQUM YAYLOVLARI VA UNING OZUQABOP O‘SIMLIKLARI  
BIOEKOLOGIYASI**

*Maxammadiyev Davron Muyassarovich-katta o‘qituvchi*

*Abdullayeva Kamola Narzulla qizi-talaba*

*Kucharova Lobar Davron qizi- talaba*

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**davron\_0308@mail.ru**

**Annotasiya.** Qizilqum - respublikamiz uchun muhim bo‘lgan eng yirik chorvachilik hududlari qatoriga kiradi. Qizilqum o‘simlik qoplaminig asosini buta va barra o‘tlar tashkil etadi. Qizilqum yaylovlarda keng tarqalgan o‘simliklardan: oq saksovul, qora saksovul, qora cherkez, chog‘on, qandim, izen kabilar ko‘p uchraydi.

**Kalit so‘z va iboralar:** qum uyumlari, yassi tog‘ tizmalari, tekisliklar, past cho‘kmalar, sho‘rxok, gipsli maydonlar, ma‘muriy - territorial chegara, ekologik tiplar, yaylov, re‘lef, tuproq qatlami, chorvachilik hududi.

**Аннотация.** Кызылкум – один из крупнейших животноводческих районов, важных для нашей республики. Основу растительного покрова Кызылкума составляют кустарники и травы. Среди обычных растений на пастбищах Кызылкума много таких, как саксовол белый, саксовол черный, черказ черный, чогон, кандым, изен.

**Ключевые слова и фразы:** песчаные дюны, плоские горные хребты, равнины, понижения, солончаки, гипсовые массивы, административно-территориальная граница, экологические типы, пастбища, рельеф, почвенный слой, животновод-ческие площади.

**Annotation.** Kyzylkum is one of the largest cattle-breeding areas important for our republic. The basis of Kyzylkum plant cover is bushes and grasses. Among the common plants in the Kyzylkum pastures, there are many such as white saxovol, black saxovol, black cherkaz, chogon, kandym, and izen.

**Key words and phrases:** sand dunes, flat mountain ranges, plains, low depressions, salt marshes, gypsum areas, administrative-territorial border, ecological types, pasture, relief, soil layer, livestock area.

Qizilqum - Markaziy Osiyoda Qoraqum choʻlidan keyin ikkinchi oʻrinda turuvchi oʻz tabiiy iqlim muhiti jihatidan oʻta murakkab, xilma-xil – turli shakl, gigenik va masshtabdagi qum uyumlari, yassi togʻ tizmalari, tekisliklar, past choʻkmalar, shoʻrxok, gipsli maydonlar majmuasidan iborat geografik hudud hisoblanadi. Qizilqum choʻli Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning pastki va oʻrta oqimi orali-gʻida joylashgan qishloq xoʻjaligini chorvachilik sohasi uchun muhim oʻrinda turgan ulkan hududdir.

Ishlab chiqarish kuchlarining hozirgi taraqqiyot darajasida Qizilqum choʻli Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qoraqolpogʻiston respublikalari maʼmuriy - territorial chegaralari doirasida eng yirik chorvachilik hududi jumlasiga kiradi.

Qizilqumning ulkanligi, tabiiyki, uning turli qismlarida tuproq - iqlim sharoitlari bir-biridan ancha farq qiladi.

Quyida hududga xos asosiy ekologik tiplar – qumli choʻl, yassi togʻ maydonlarining oʻziga xos tabiati koʻrsatkichlari bayon etilmoqda.

Qumli choʻl maydonlari hududning 60% dan ortiq maydonini egallaydi. Qizilqumning qumli maydonlari tabiiy sharoiti, reʻlefi va tuproq qatlami, bilan qoplanish darajasi bir xil emas; jumladan, zichlashgan vatekislantirib qolgan qum maydonlari bilan bir qatorda hali endigina zichlasha boshlagan turli shakldagi oʻydim-chyqur qum tizmalari yoki yengil koʻchuvchan va yetarli zichlashmagan qum maydonlari ham mavjud. [1]

Qizilqumning iqlim koʻrsatkichlari boshqa choʻllardan kam farq qiladi. Biroq, ayrim iqlim koʻrsatkichlari jihatidan ajralib ham turadi, yozi jazirama issiq, quruq. qishi nisbatan qahraton. Havoning yillik harorati Qizilqumning shimol qismida 11<sup>0</sup>-12<sup>0</sup>, janubida esa -15<sup>0</sup>-17<sup>0</sup>C. Yozda oʻrtacha harorati 32<sup>0</sup>-34<sup>0</sup>, maksimum (absolyt) harorati 47<sup>0</sup>- 48<sup>0</sup>C ni tashkil qiladi.

Yillik yog‘in sochin miqdori shimolda 80-90 mm, markaziy qismda 110 - 130 mm dan yuqori. Yog‘ingarchilik asosan qish va erta bahor mavsumlariga to‘g‘ri keladi.

O‘simlik qoplaminin g asosini buta va barra o‘tlar tashkil etadi. Qizilqum yaylovlarda keng tarqalgan o‘simliklardan: oq saksovul, qora saksovul, qora cherkez, chog‘on, qandim, izen kabilar ko‘p uchraydi. [1,2,3,5]

Oq saksovul (*Haloxylon persicum*) sho‘radoshlar oilasiga mansub daraxtsimon buta, bo‘yi 3-4 metr. Qo‘y, echki, tuyalar iste‘mol qiladi. Mart-aprelda gullab, urug‘lari oktyabrda pishadi. Oq saksovul – qumli cho‘l yaylovlarini yaxshilash, tiklash, qum ko‘chishlarni bartaraf qilishda istiqbolli fitomeliorant.

Qora saksovul –sho‘radoshlar oilasiga mansub daraxtsimon buta, bo‘yi 3-4 metr, qulay sharoitlarda 5-6 metr. Qora saksovul tabiiy holda asosan zichlashgan qumlar, sho‘rxok, qo‘ng‘ir bo‘z tuproqlar, yer osti suvlari tuproq yuzasiga yaqin bo‘lgan joylarda tarqalgan. Hozirgi kunda insonlar tomonidan ayovsiz chopib olinganligi sababli tabiiy saksovulzorlar maydoni keskin kamayib ketmoqda. Qora saksovul kuz, qish mavsumlarida qo‘y echki va tuyalar uchun muhim ozuqa hisoblanadi. Uning novdalari va urug‘lari qoniqarli ozuqadir. Qora saksovul ozuqasi-da 10-12% protein, 2,2-2,7% yog‘, 21-38% kul moddasi, 39-35% azotsiz ekstrakt moddalar va 14,9% klechatka mavjud.

Cherkez (Riter sho‘rasi) - sho‘radoshlar oilasiga mansub, bo‘yi 1,5-2 metr zichlangan maydonlarda tarqalgan, kuchli va chuqur rivojlangan ildiz sistemasiga ega. Erta bahorda ko‘karib noyabrda urug‘ beradi. Qo‘y, echkilar uchun bahor, kuz va qish mavsumida yaxshi yeyiluvchan ozuqadir. Cherkez qumli cho‘l yaylovlarini yaxshilashda, qumli maydonlarni mustahkamlashda ishlatiladigan istiqbolli o‘simlik.

Qiltiq – *Taeniatherum crinitum Nevski* o‘simligi faqatgina urug‘lari pishgan davridagina chorva mollarining ogiz bo‘shligini jarohatlashi mumkin. Ko‘k holatda umuman zararsiz bo‘lib, chorva mollari tomonidan qoniqarli iste‘mol qilinadi.

Tarkibida zaharli moddalar mavjud bo‘lgan o‘simlik turlarining ham ko‘pchiligi faqatgina aktiv o‘sish (vegetatsiya) davridagina zararlidir. Masalan, ayiqtovon -

*Ranunculus*, isiriq - *Peganum harmala* L., uchmalar o‘z vegetatsiya davrini tugatganidan so‘ng chorva mollari uchun umuman zararsiz hisoblanadi.

Zararli va zaharli o‘simlik turlarining ko‘pchiligi o‘z tarkibida efir moylari, alqolloidlar to‘plashi, tanasining tikanlar va tuk-chalar bilan koplanganligi sababli vegetatsiya davrida chorva mollari ularni deyarli yemaydi. [1,4,5]

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Boboyeva N. A, Xalilov N - Yaylovshunoslik va yaylov melioratsiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent, “fan nashriyoti” -2023, 248 bet
2. Islomov B.S., Hasanov M.A. Botanika. Darslik. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 568 b.
3. Azimboev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. (Darslik). T. Iqtisodiyot-moliya 2006. – 180 b.
4. Nazarov X.T. va b. Yalovlarda cho‘llanishning geokologik oqibatlarini va uni optimallashtirish yo‘llari//Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy geografiya: yutuqlar, muammolar va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. T., 2013.
5. Maxmudov M.M., Bekchanov O., Muqimov T.X. va boshqalar. Qorako‘lchilik yaylovlari holatini yaxshilash va ulardan foydalanishning ekologik tabaqalashgan texnologiyalari. Toshkent. 2006, 36 b.